

Xorijdagi matematik vatandoshlardan yana bir onlayn dars!

O'zR FA Matematika instituti olimlari tashabbusi bilan talabalar va yosh olimlar uchun 2020-yil 16-iyulidan haftaning dushanba, chorshanba va juma kunlari soat 11:30 da "p-adik analizga kirish" mavzusida onlayn darslari tashkil etilmoqda.

"p-adik analizga kirish" mavzusida Yozgi matematika maktabining navbatdagi onlayn darsi 2020-yil 17-avgust kuni soat 11:30 da o'tkaziladi. Ushbu darsda bugungi kunda noarximed o'lchovlar nazariyasi va dinamik sistemalari bo'yicha ilmiy faoliyat olib borayotgan yetuk olim, vatandoshimiz, Birlashgan Arab Amirliklari universiteti professori Farrux Muxammedov "p-adik analiz va uning tatbiqlari" mavzusida ma'ruza qiladi.

Zoom havolasi: <https://us02web.zoom.us/j/4436306813>

Identifikator: 443 630 6813